

## UMUMIY FORTEPIANO DARSLARIDA MUSIQIY ASARLAR USTIDA ISHLASH

Boboyeva Shahnoza Islomovna

*Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada zamonaviy musiqiy ta'limda musiqiy asarlarni o'zlashtirish masalalari haqida so'z boradi. Unda musiqa cholg'ularida turli janrlardagi asarlar ijrosi ustida ishlashning asosiy jihatlariga to'xtalib o'tilgan va uslubiy tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *musiqiy cholg'ular, musiqiy asar, ijro texnikasi, badiiy xususiyatlar, uslubiyot, musiqiy janr, ijro yo'nalishlari, tonallik, applikatura, artikulyatsiya.*

Har qanday musiqa asari bu badiiy asar. Uni badiiy asar darajasida ijro etish sozandadan puxta bilim va yuksak mahorat talab qiladi. O'qituvchi bo'lg'usi sozandani tarbiyalar ekan, unda shu cholg'uga nisbatan mehr uyg'ota olishi kerak. Buning uchun o'qitishning dastlabki davrlaridanok imkoni boricha shu cholg'uda yaxshi jaranglaydigan, o'quvchiga yoqadigan asarlarni o'quv rejasida tarkibiga doimiy kiritib borishi lozim.

Bugungi globallashtirish jarayoni musiqiy ijrochilik san'ati sohasini ham chetlab o'tmagan. Shu sabab ijrochilik ko'lamini tobora kengaytib, ijro etilayotgan asarlarning janr va ijro yo'nalishlarini o'zlashtirish masalasi zamonaviy musiqiy ta'limda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Agar o'zbek xalq va boshqa cholg'ular ijrochilarining hozirgi paytdagi repertuariga nazar tashlasak, unda turli davrga mansub bo'lgan mualliflarning har xil asarlari va xalq kuylarini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida tarbiyalanayotgan yosh sozandalarning chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lishlarini, ijro etish ko'nikmalarini kun sayin takomillashtirib borishlarini taqozo etadi.

Ma'lumki, musiqa cholg'ulari turi jihatidan xilma-xil bo'lib, ularning har biridan dars beradigan o'qituvchi o'quv rejasida belgilangan talablar asosida cholg'ular ijrosi uchun musiqa tanlash va o'rganishda quyidagi bir necha jihatlariga e'tibor berishi lozim:

- o'quvchi yoki talabaning individual imkoniyatlari;
- ijrochida mavjud kamchiliklar;
- musiqiy asar janri;
- musiqa asarini ijro etish uslubiyoti;
- ijrochilik yo'nalishi yoki maktablari.

Ko'pchilikka ma'lumki, musiqiy asar odatda muayyan bir cholg'ular uchun maxsus yozilsa-da, amaliyotda bunday asarlar turli cholg'ularida ijro etilib kelinadi. Buning natijasida keyingi paytlarda musiqiy asarni biror cholg'ular ijrosi uchun moslashtirish keng omma'lashdi. Bunday asarlarini o'rganish, o'zlashtirish va uni me'yoriga

yetkazib ijro etish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu masalada avvalo, biz musiqiy asarni teran tushunib olish muhimligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Musiqashunoslarning ta'kidlashicha, musiqani o'rganish va o'zlashtirish, uni to'liq idrok qilib olishdan boshlanadi. Buning uchun musiqiy asar mazmunida quyidagilar bo'lishini tushunib olish lozim:

- 1) ob'jektning ifodalash; (his-tuyg'u, voqelik, kayfiyat, holat);
- 2) sub'jektning aks ettirish (muallif shaxsini ifodalash);
- 3) g'oyani ifodalash.

Bularga e'tibor berish cholg'u uchun maxsus bastalangan musiqiy asarlarni yetarli darajada idrok qilib olish imkonini beradi.

Ob'jektiv yondashuv:

- a) asarning qaysi janrga mansubligi (oddiy kuy, rapsodiya, poema, romans, marsh, vals, raqs va hokazo);
- b) asar tonalligini aniqlash;
- v) uning shakli (bir qismli, ko'p qismli, sonata allegrosi, rondo, variatsiya, kanon, fuga, invensiya va hokazo);
- g) qismlarining qiyofasi (obrazi) va xarakter (quvnoq, g'amgin, qahramonona, hazil va hokazo);
- d) qaysi davrda yozilganligi, ohang va garmonik tili, uslubi;
- e) mazkur asarni chalishda shakllangan an'analar.

Sub'jektiv yondashuv:

- a) ijrochining ijrochilik temperamenti (lirik, romantik, kayfuli, melanxolik xarakterdagi asarlarni ijro etishga moyilligi);
- b) ijrochining obrazli fikrlashi va ijodiy xayoloti;
- v) ijrochining asar muallifi haqidagi bilimlari (uning hayoti va ijodi bilan qiziqishi);
- g) ijrochining ijro imkoniyatlari (ya'ni, uning mazkur asar ijro yo'nalishini qanchalik o'zlashtirganligi).

Sozanda kichik bo'laklar ustida qancha vaqt qunt bilan ishlamasin, asarni bir butunligini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak va ba'zida butunicha chalib tasavvurini yanada boyitib borishi maqsadga muvofiqdir. Butun ijro davomida esa me'yoriy tushunchasi ustoz va shogirdning diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Uchinchi bosqich □ musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi bo'lib, asarning badiiy maqsadlari, uning qismlari, jo'rlar bo'laklari ko'p ovozlari chuqur o'rganilgan holda yod olish, badiiy vazifaning pirovard natijalarini aniqlash va o'rganilgan qismlarni bir butun holga keltirish «yig'ish» va ijro ifodasini takomillashtirishdan iborat. Ayniqsa asarni barcha artikulyatsiya talablariga to'liq rioya qilgan holda ijro etish muhim omil hisoblanadi. Bunda fortepiano jo'rligi, ayniqsa jo'rnovoz bilan hamohang bir-birini chuqur his qilgan holdagi umumiy bir butun ijroni amalga oshiruvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda ansambl jo'rligi,

asar dinamikasi, jumjalarning to'liq ochib berilishi, asar tezligi ustida diqqat bilan ishlash eng asosiy jihatlardan hisoblanadi.

Musiqiy asar ustida ishlashda muallim o'zlashtirilayotgan asarni chuqur bilishi, uning ba'zi murakkab joylarini yengillash-tirishga harakat qilmasligi lozim. Chunki ba'zi o'qituvchilar asarning ma'lum bir murakkab qismi yoki passajini o'quvchi o'zlashtira olmasa olib tashlaydilar. Bunday ijroni to'laqonli bir butun asar ijrosi deb bo'lmaydi.

Asarni yod olish jarayonida musiqiy xotiraning barcha turlari - eshitish, ko'rish, sezgi, harakat, mantiq va qalbdan yod olish turlari ishga solinadi. Yod olingandan keyin esa yanada ishonchli bo'lishi uchun asarni magnit yozuvini eshitish orqali xotirada saqlash hamda nota matnidan foydalanib yana bir qayta tekshirib ijro etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ijrochi o'zini sinash maqsadida asarni turli qismlaridan boshlab ijro etishi ham asarning xotirada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, musiqiy asar ustida ishlash individual xususiyatga ega va bu jarayon har bir o'quvchining qobiliyati, uning ijro imkoniyatlari hisobga olingan holda o'qituvchining o'z uslubi asosida amalga oshirilsa-da, asarning mazmun-mohiyatini ochib berish, shuningdek, musiqiy asarning barcha talablariga to'liq mos ravishda ijro etish barcha uchun birdek qat'iy talab bo'lib qolaveradi.

Musiqiy asarlar ustida ishlashning asosiy mezonlaridan bo'lgan quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarurligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchimiz:

- cholg'uda ijro holatini to'g'ri shakllantirish;
- tovush hosil qilish va uni boshqarish ko'nikmalari ustida ishlash;
- applikator talablariga to'liq rioya qilish;
- artikulyatsiya qoidalarini bajarish;
- asarning ijro yo'nalishi (stil)ni o'zlashtirish;
- talaba-o'quvchilarda badiiy ijro va ijro madaniyatini shakllantirish borasida jiddiy ish olib borish;
- turli millat va xalqlar musiqalarida musiqiy bezaklarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash mahoratini muntazam oshirib borish;
- talaba-o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish;
- ijro texnikasi ustida ishlash.

Musiqiy asarlar ustida ishlashda o'qituvchilar qanday asar bo'lishidan qat'iy nazar uning barcha jihatlari ustida qunt bilan ishlashlari zarurligi bugungi kun talabidir. Bunda avvalo mutaxassislar o'z ustida muntazam ishlab o'zlarining bilim va mahoratlarini oshirishlari hamda zamona-viy cholg'u ijrochilik san'ati yutuqlaridan boxabar bo'lib borishlari zarur. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida malaka oshirish, ilg'or tajribalarni o'zlarining faoliyatlarida umumlashtirgan holda dars jarayonlarini tashkil etib borishlari xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Alekseev A. □“Metodika obucheniya igre na fortepiano” M., 1971
2. Barenboym L. □“Fortepiannaya pedagogika” M., 1937
3. Rajnikov V. □“Tri prinstipa novoy pedagogiki v muzikalnom obuchenii” M., 2002
4. Isaqulova N., Bohovuddinova Z., Mahmudova S. □“O' quv jarayonida ta' lim texnologiyalaridan foydalanish uslubiyoti” □ T.: «Fan», 2013